



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

KASBIY RIVOJLANISH KUNLARIDA O'RGANILGAN PEDAGOGIK TAJIRIBALARNI UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONIGA TADBIQ ETISHNING METODIK ASOSLARI

Narkulov Ulugbek Mamadaliyevich

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi, ingliz tili fani metodisti

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi 246-son buyrug'i asosida joriy etilgan "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tizimining pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kasbiy rivojlanish kunlarida o'rganilgan pedagogik tajribalarni maktab o'quv jarayoniga joriy etishning metodik asoslari o'rganildi. Shuningdek, krk.avloniy.uz platformasi orqali kasbiy rivojlanish jarayonlarini raqamlashtirishning samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari kasbiy rivojlanish tizimi pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda, innovatsion metodlarni joriy etishda hamda ta'lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: kasbiy rivojlanish, pedagogik tajriba, metodik xizmat, ta'lim sifati, innovatsion metodlar, pedagog kompetensiyasi, metodik faoliyat.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВНЕДРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОПЫТА, ИЗУЧЕННОГО В ДНИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ, В УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Наркулов Улугбек Мамадалиевич

Самаркандский областной центр педагогического мастерства, методист по английскому языку

Аннотация

В статье анализируется значение системы «День профессионального развития» и «Час профессионального развития», внедренной на основании постановления Президента Республики Узбекистан № ПК-231 и приказа № 246. Исследованы методические основы внедрения педагогического опыта в образовательный процесс школ. Результаты показывают, что профессиональное развитие педагогов способствует повышению качества образования.

Ключевые слова: Профессиональное развитие, педагогический опыт, методическая служба, качество образования, инновационные методы, педагогическая компетентность, методическая деятельность.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPLEMENTING PEDAGOGICAL PRACTICES LEARNED DURING PROFESSIONAL DEVELOPMENT DAYS INTO THE EDUCATIONAL PROCESS OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Narkulov Ulugbek Mamadaliyevich

Samarkand Regional Center for Pedagogical Excellence, English Language Methodologist

Abstract

This article examines the methodological foundations for implementing pedagogical

practices learned during professional development days into school educational processes. The study is based on national policy reforms and digital platforms. The results indicate significant improvements in teacher competence and educational quality.

Keywords: Professional development, pedagogical experience, methodological support, quality of education, innovative methods, teacher competence, methodological activity.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimining samaradorligi bevosita pedagoglarning kasbiy kompetensiyasiga bog'liq. Zamonaviy ta'lim tizimi pedagoglardan doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishni talab qiladi. Shu sababli pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori asosida pedagoglarning kasbiy rivojlanishini yangi tizim asosida tashkil etish belgilandi¹. Mazkur qarorga muvofiq, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tizimli tashkil etish, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish va ta'lim sifatini oshirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi 246-son buyrug'i asosida kasbiy rivojlanish tizimi amaliyotga joriy etildi[2]. Ushbu tizim pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Kasbiy rivojlanish tizimi doirasida krk.avloniy.uz platformasi ishlab chiqildi. Mazkur platforma pedagoglarning kasbiy rivojlanish jarayonlarini monitoring qilish, metodik materiallar bilan ta'minlash va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

So'nggi yillarda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi xalqaro va milliy miqyosda ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, OECD tomonidan 2024-yilda e'lon qilingan Teaching and Learning International Survey (TALIS 2024) natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishda muntazam ishtirok etishi o'quvchilarning akademik natijalarini o'rtacha 21–28% ga oshirish imkonini berishi aniqlangan[3]. Tadqiqot natijalarida shuningdek, kasbiy rivojlanish jarayonlarida o'rganilgan metodlarning amaliyotga joriy etilishi ta'lim samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanligi alohida ta'kidlangan. OECD (2024) hisobotiga ko'ra, pedagoglarning kasbiy rivojlanish dasturlarida ishtirok etishi yetarli darajada samarali bo'lishi uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- o'rganilgan metodlarni amaliyotga joriy etish mexanizmining mavjudligi;
- metodik kuzatuv va monitoring tizimining yo'lga qo'yilganligi;
- raqamli platformalar orqali metodik qo'llab-quvvatlash;
- mentorlik va metodik hamkorlik tizimining mavjudligi [2].

Mazkur omillar pedagoglarning kasbiy rivojlanish tizimini samarali tashkil etishda muhim metodik asos hisoblanadi. O'zbekistonlik olimlardan N.A. Muslimov pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uzluksiz ta'lim tizimining asosiy komponenti ekanligini ta'kidlab, pedagoglarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan[3].

Shuningdek, O.Tolipov pedagoglarning kasbiy rivojlanishi innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi[4].

R.H.Ishmuhammedov esa pedagoglarning kasbiy rivojlanishi samaradorligini oshirish uchun metodik xizmat tizimini takomillashtirish zarurligini asoslab bergan[5]. Ushbu ilmiy qarashlar pedagoglarning kasbiy rivojlanishi ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari va amaliy tahlil (samarqand viloyati misolida). Mazkur tadqiqot Samarqand viloyatining tuman va shaharlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borildi. Tadqiqot jarayonida:

- 20 dan ortiq umumiy oʻrta taʼlim maktabi;
- 100 dan ortiq pedagoglarning darslari;
- kasbiy rivojlanish kunlarida ishtirok etgan pedagoglar faoliyati kuzatildi va tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, pedagoglarning aksariyati kasbiy rivojlanish kunlarida oʻrganilgan metodlar bilan tanish boʻlsa-da, ularni amaliyotga joriy etish darajasi yetarli emas.

Aniqlangan muammolar quyidagilardan iborat:

- pedagoglarning 62% oʻrganilgan metodlarni dars jarayonida muntazam qoʻllamayotgani;
- pedagoglarning 48% innovatsion metodlardan foydalanishda metodik qiyinchiliklarga duch kelayotgani;
- pedagoglarning 54% metodik qoʻllab-quvvatlash yetarli emasligini bildirgani;
- pedagoglarning 46% raqamli metodik materiallardan foydalanmayotgani koʻzga tashlanadi.

Dars kuzatuvlari natijalari shuni koʻrsatdiki, koʻplab pedagoglar anʼanaviy oʻqitish metodlaridan foydalanishda davom etmoqda, bu esa dars samaradorligining past boʻlishiga olib kelmoqda. Xususan, quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- interfaol metodlardan yetarli foydalanilmayapti;
- oʻquvchilarni faol ishtirokini taʼminlovchi metodlar kam qoʻllanilmoqda;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar yetarli darajada joriy etilmagan.

Natijada dars samaradorligi past darajada qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi va usullari. Mazkur tadqiqotda pedagoglarning kasbiy rivojlanish kunlarida oʻrganilgan pedagogik tajribalarni umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida oʻquv jarayoniga joriy etishning metodik asoslarini aniqlash va takomillashtirish maqsadida kompleks yondashuv asosida ilmiy-pedagogik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yoʻnaltirilgan yondashuvlarga asoslandi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Birinchidan, nazariy tahlil usuli orqali pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, metodik xizmat faoliyati, pedagogik kompetensiya va innovatsion metodlarni joriy etish boʻyicha milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar oʻrganildi. Ushbu usul pedagoglarning kasbiy rivojlanishi tizimini ilmiy asosda tushunish, uning asosiy komponentlarini aniqlash va metodik asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Ikkinchidan, pedagogik kuzatuv usuli orqali umumiy oʻrta taʼlim maktablarida pedagoglarning dars jarayoni tahlil qilindi. Ushbu kuzatuvlar pedagoglarning kasbiy rivojlanish kunlarida oʻrganilgan metodlardan foydalanish darajasini aniqlash imkonini berdi. Kuzatuv jarayonida pedagoglarning interfaol metodlardan foydalanish darajasi, oʻquvchilar faolligini taʼminlash koʻrsatkichlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish holati baholandi.

Uchinchidan, soʻrovnoma usuli orqali pedagoglarning kasbiy rivojlanish tizimiga boʻlgan munosabati, oʻrganilgan metodlarni amaliyotga joriy etishdagi qiyinchiliklari va ehtiyojlari aniqlandi. Soʻrovnomada ishtirok etgan pedagoglarning fikrlari kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish boʻyicha muhim empirik maʼlumotlarni taqdim etdi.

Toʻrtinchidan, pedagogik eksperiment usuli orqali taklif etilgan metodik modelning samaradorligi sinovdan oʻtkazildi. Eksperiment davomida pedagoglarga metodik qoʻllab-quvvatlash koʻrsatildi va ularning dars samaradorligidagi oʻzgarishlar monitoring qilindi.

Beshinchidan, statistik tahlil usuli orqali olingan natijalar umumlashtirildi va ularning ilmiy asoslanganligi taʼminlandi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi pedagoglarning kasbiy rivojlanish tizimini chuqur oʻrganish va uning samaradorligini oshirish boʻyicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Kasbiy rivojlanish kunlarida oʻrganilgan pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy

etishning pedagogik shart-sharoitlari. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik tajribalarni amaliyotga samarali joriy etish ma'lum pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi. Ushbu shart-sharoitlar pedagoglarning kasbiy rivojlanish jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Birinchi pedagogik shart – metodik qo'llab-quvvatlash tizimining mavjudligi hisoblanadi. Pedagoglar kasbiy rivojlanish kunlarida yangi metodlarni o'rganishadi, biroq ularni amaliyotga joriy etish uchun metodik ko'rsatmalar zarur. Metodik qo'llab-quvvatlash pedagoglarga yangi metodlarni qanday qo'llash, qaysi sharoitda foydalanish va qanday natijalarga erishish mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Ikkinchi pedagogik shart – pedagoglarning motivatsiyasi hisoblanadi. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishga bo'lgan ijobiy munosabati ularning kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Motivatsiya mavjud bo'lgan taqdirda pedagoglar yangi metodlarni o'rganishga va ularni amaliyotga joriy etishga intilishadi.

Uchinchi pedagogik shart – metodik hamkorlik tizimining mavjudligi hisoblanadi. Pedagoglar o'zaro tajriba almashish orqali kasbiy rivojlanish jarayonini samarali amalga oshirishlari mumkin. Metodik birlashmalar, seminarlar va treninglar pedagoglarning kasbiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

To'rtinchi pedagogik shart – raqamli texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli platformalar pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. krk.avloniy.uz platformasi pedagoglarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish, metodik materiallar bilan ta'minlash va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan metodik modelni amaliyotga joriy etish mexanizmi. Taklif etilgan metodik model pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tizimli tashkil etishga qaratilgan bo'lib, uning amaliyotga joriy etilishi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – diagnostika bosqichi. Ushbu bosqichda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi darajasi aniqlanadi. Diagnostika pedagoglarning metodik bilimlari, pedagogik ko'nikmalari va innovatsion metodlardan foydalanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich – o'rganish bosqichi. Ushbu bosqichda pedagoglar kasbiy rivojlanish kunlarida yangi metodlarni o'rganishadi. Seminarlar, treninglar va amaliy mashg'ulotlar pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich – amaliyotga joriy etish bosqichi. Ushbu bosqichda pedagoglar o'rganilgan metodlarni dars jarayonida qo'llashadi. Ushbu jarayon pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

To'rtinchi bosqich – monitoring bosqichi. Ushbu bosqichda pedagoglarning kasbiy rivojlanish jarayoni monitoring qilinadi. Monitoring pedagoglarning kasbiy rivojlanish samaradorligini baholash imkonini beradi.

Beshinchi bosqich – tahlil va takomillashtirish bosqichi. Ushbu bosqichda olingan natijalar tahlil qilinadi va zarur bo'lgan takomillashtirish choralari ishlab chiqiladi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari pedagoglarning kasbiy rivojlanish tizimi ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Kasbiy rivojlanish kunlari pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Biroq, kasbiy rivojlanish jarayonining samaradorligi o'rganilgan metodlarni amaliyotga joriy etish darajasiga bog'liq. Tadqiqot natijalari pedagoglarning aksariyati o'rganilgan metodlarni amaliyotga joriy etishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko'rsatdi. Mazkur muammoni hal etish uchun metodik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarur.

Metodik asoslarni takomillashtirish zarurati. Tadqiqot natijalari kasbiy rivojlanish kunlarida o'rganilgan pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etishning metodik asoslarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur muammoni hal etish uchun quyidagi metodik

yondashuvlarni joriy etish zarur:

1. Metodik qo'llanma ishlab chiqish

Kasbiy rivojlanish kunlarida o'rganilgan metodlarni amaliyotga joriy etish bo'yicha maxsus metodik qo'llanma ishlab chiqish zarur.

Mazkur metodik qo'llanmada:

- innovatsion metodlardan foydalanish bo'yicha aniq ko'rsatmalar;
- dars jarayoniga joriy etish bosqichlari;
- amaliy misollar;
- metodik tavsiyalar keltirilishi zarur.

2. Metodik monitoring tizimini joriy etish

Pedagoglarning o'rganilgan metodlarni amaliyotga joriy etish darajasini monitoring qilish zarur. Bu quyidagilar orqali amalga oshiriladi: dars kuzatuvlari; metodik tahlil; platforma orqali monitoring;

Taklif etilayotgan metodik model. Kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi metodik model taklif etiladi:

- 1-bosqich – Kasbiy rivojlanish kunlarida o'rganish;
- 2-bosqich – Metodik qo'llanma orqali mustahkamlash;
- 3-bosqich – Amaliyotga joriy etish;
- 4-bosqich – Raqamli platforma orqali qo'llab-quvvatlash;
- 5-bosqich – Monitoring va tahlil.

Mazkur model pedagoglarning kasbiy rivojlanishini samarali tashkil etish imkonini beradi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasbiy rivojlanish kunlari pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq o'rganilgan pedagogik metodlarni amaliyotga joriy etish darajasi yetarli emas. Mazkur muammoni hal etish uchun quyidagilar zarur:

- metodik qo'llanmalar ishlab chiqish;
- raqamli platformalardan samarali foydalanish;
- metodik monitoring tizimini joriy etish;
- seminar va treninglarni ko'paytirish.

Mazkur chora-tadbirlar pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-231 qarori, 2024.
2. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 246-son buyrug'i, 2024.
3. OECD TALIS Report, 2024.
4. Muslimov N.A. Pedagogik kompetensiya, 2019.
5. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalar, 2015.
6. Ishmuhamedov R. Innovatsion metodlar, 2017.
7. krk.avloniy.uz platformasi materiallari, 2025.